

## **Yangi ijtimoiy masofani saqlash bo'yicha qo'llanma**

12-iyul(dushanba)dan boshlab Seul va metropoliten hudud deb sanalgan Inchon, Kyongido viloyatlarida 4-darajali ijtimoiy masofa saqlash qoidasi qo'llaniladi. 4-darajali ijtimoiy masofa saqlashning yangi o'zgargan qoidasiga oid ma'lumotni tekshirib birgalikda Covid-19ga qarshi tartib-qoidalarga e'tiborli bo'laylik.

-Seul Hokimiyati -

□ **Amal qilish muddati : 12-iyul(dushanba) ~ 25-iyul(yakshanba) - 2 hafta**

□ **Amal qiladigan hudud : Seul va Inchon, Kyongido viloyatlari**

□ **4-darajali ijtimoiy masofa saqlashning asosiy mazmuni**

<b>Tarkib</b>	<b>Mazmun</b>
<b>Shaxsiy yig'ilishlar</b>	Kechki soat 18:00 oldin 4kishigacha, soat 18:00 keyin 2kishigacha yig'ilish mumkin.
<b>Tadbirlar</b> <b>Mitinglar(namoyishlar)</b>	Tadbir hamda bir kishilik mitinglardan tashqari, ko'p kishilik mitinglar o'tkazish mumkin emas. * To'y • Dafn marosimida faqat qarindoshlarga ruxsat(49kishigacha)beriladi.
<b>Diniy faoliyat</b>	Yuzma-yuz ko'rishmasdan ibodat qilishga ruxsat beriladi. Yig'ilish/tadbir/ovqatlanish/tunash ta'qiqlanadi.
<b>Maktab darslari</b>	Masofaviy(onlayn) darslar
<b>Korxonalardagi ish faoliyat</b>	Ishlab chiqarish sohasidan tashqari, barcha korxonalarda belgilangan ish vaqti, belgilangan tushlik tanaffusi hamda uydan turib ishlash 30% tavsiya etiladi.
<b>Sport o'yinlari tomoshasi</b>	Tomoshabinlarsiz sport o'yini
<b>Ommaviy foydalaniladigan joylar</b>	► Foydalanadigan kishilar soni: Belgilan joyning har 8m <sup>2</sup> maydoniga 1kishi (Ba'zi istisno holatlar mavjud.) ► Foydalanish vaqti: Kechki soat 22:00dan keyin cheklov ► Yig'ilishga ta'qiq: Barcha ko'ngilochar muassasalar * Barcha turdagi tungi klublar

※ Yuqoridagi vaqt davomida **butunlay emlangan shaxslarga imtiyoz\*** berilmaydi.

(\*Faqtgina shaxsiy yig'ilishlarda kishilar soni hisobidan chiqariladilar. )

## Ijtimoiy masofa saqlash bo'yicha yangi o'zgarishlar

- Sabab : O'z-o'zini nazorat qilish va mas'uliyat ostida barqaror ijtimoiy masofani saqlash tizimini yaratish
- Amal qilish vaqti : 2021-yil 12-iyuldan keyin
- Asosiy o'zgarishlar
  - ▶ Darajalarning soddalashtirilishi va darajalarning o'zgarilish mezonlarini moslash
  - ▶ Har bir daraja uchun yig'ilishlardagi maksimal kishi sonining o'zgarilishi
  - ▶ Xavfqa qarab ommaviy foydalaniladigan joylar uchun cheklovlarning o'zgarilishi
  - ▶ Covid-19ga qarshi tartib-qoidani buzganlik uchun jismoniy shaxs va ommaviy foydalaniladigan joylarga nisbatan qattiq jazo choralari va boshqa.

### 1. O'zgartirilgan daraja tasnifi va mezonlari (5- darajadan 4- darajagacha soddalashtirildi)

		1-daraja	2-daraja	3-daraja	4-daraja
Covid-19ni yuqtirganlar mezon bo'yicha	Mamlakat bo'ylab	500 kishidan kam	500 kishidan ortiq	1,000 kishidan ortiq	2,000 kishidan ortiq
	Seul	97 kishidan kam	97 kishidan ortiq	195 kishidan ortiq	389 kishidan ortiq

### 2. Har bir daraja uchun shaxsiy yig'ilishlar / tadbirlar / mitinglar uchun maksimal kishi soni chegarasi

	1-daraja	2-daraja	3-daraja	4-daraja
<b>Shaxsiy yig'ilishlar</b>	▪ Cheklovlar yo'q, lekin Covid-19ga qarshi tartib-qoidaga amal qilish kerak	▪ 8 kishigacha mumkin	▪ 4 kishigacha mumkin	▪ Soat 18:00dan oldin 4 kishigacha mumkin ▪ Soat 18:00dan keyin 2 kishigacha mumkin
<b>Tadbirlar</b>	▪ Katta tadbirlar bo'lsa, bu haqida mahalliy hukumatga oldindan xabar berish kerak ( 500 kishidan ortiq)	▪ 100 kishidan kam	▪ 50 kishidan kam	▪ Hech qanday tadbirga ruxsat berilmaydi
<b>Mitinglar</b>	▪ 500 kishidan kam	▪ 100 kishidan kam	▪ 50 kishidan kam	▪ 1 kishilik mitinglardan tashqari, ko'p kishilik mitinglarga ruxsat berilmaydi

#### ※ Istisno holatlar

- Agar shaxsiy yig'ilish **oila 'azolaridan iborat bo'lsa**, maksimal kishi soni chegarasi bo'yicha istisnolarga ruxsat beriladi. **(2-darajali ijtimoiy masofa saqlashgacha mumkin)** (※3-darajadan yuqori bo'lgan ijtimoiy masofa saqlashdan boshlab mumkin emas)
- Shaxsiy yig'ilishda birga yashaydigan oila a'zolari, ijtimoiy himoyaga muhtojlarga (ya'ni bolalar, qariyalar, nogironlar) qaraydiganlar va o'lim to'shagida bo'lganlar bo'lsa, kishilar maksimal soni chegarasiga nisbatan istisnoga ruxsat beriladi.

### 3. Ommaviy foydalanadigan joylar uchun kasallikni nazorat qilish va oldini olish tartib-qoidalari

- Ommaviy foydalanadigan joylar guruhlariga uchun xavflar tasnifi

	Asosiy joylar
<b>1-guruh</b>	- Ko'ngilochar muassasalar, holdem pablar, kolateklar va klublar
<b>2-guruh</b>	- Karaoke xonalari, restoranlar, kafelar, hammomlar, reklama zallari (masalan, uyma-uy sotish) va yopiq sport inshootlari (og'ir va yengil sport mashqlari)
<b>3-guruh</b>	- Kinoteatrlar, tomosha teatrlari, o'quv markazlari, to'y zallari, dafn marosimi uylari, sartaroshxona va go'zallik salonlari, kompyuter xonalari, o'yin-kulgi xonalari, ko'p xonali maskanlar, mutolaa xonalari, o'quv kafelari, istirohat bog'lari, akvaparklar, do'konlar, supermarketlar, universal do'konlar, (+300 m <sup>2</sup> ), kazinolar va yopiq sport inshootlari (og'ir va yengil sport mashqlaridan tashqari)

- Har bir daraja bo'yicha ommaviy foydalanadigan joylar uchun Covid-19ga qarshi tartib-qoidalar

	1-daraja	2-daraja	3-daraja	4-daraja
<b>Ko'ngilochar muassasalar-holdem pablari, kolateklar va boshqalar.</b>	Belgilangan joyning har 6 m <sup>2</sup> maydoniga 1 kishi (klublarda har 8 m <sup>2</sup> joy uchun 1 kishi) Ish soatlarida cheklovlar yo'q	Belgilangan joyning har 8 m <sup>2</sup> maydoniga 1 kishi (klublarda har 10 m <sup>2</sup> joy uchun 1 kishi) <b>Tungi soat 24:00 dan keyingi cheklovlar</b>	Belgilangan joyning har 8 m <sup>2</sup> maydoniga 1 kishi (klublarda har 10 m <sup>2</sup> joy uchun 1 kishi) <b>22:00 dan keyingi cheklovlar</b>	Belgilangan joyning har 8 m <sup>2</sup> maydoniga 1 kishi <b>22:00 dan keyin cheklov</b> (Klublarda, barlarda va pablarda yig'ilishlar mumkin emas)
<b>Restoranlar, Kafelar</b>	Stollar orasidagi masofa 1 m, o'rindiqlar / stollar orasidagi bitta oraliq bo'shliq qoldirish yoki stollar orasidagi bo'lurchi to'siqlar o'rnatish (+50 m <sup>2</sup> )			
	Ish soatlarida cheklovlar yo'q	<b>Tungi soat 24:00 dan keyin cheklov:</b> faqat o'zi bilan olib ketish va yetkazib berish	<b>22:00 dan keyin cheklov</b> faqat o'zi bilan olib ketish va yetkazib berish	<b>22:00 dan keyin cheklov:</b> faqat o'zi bilan olib ketish va yetkazib berish
<b>Karaoke xonalari, Hammomlar, Uyma-uy sotish</b>	Belgilangan joyning har 6 m <sup>2</sup> maydoniga 1 kishi Ish soatlarida cheklovlar yo'q	Belgilangan joyning har 8 m <sup>2</sup> maydoniga 1 kishi <b>Ish soatlarida cheklov yo'q</b> <b>Karaoke xonalari tungi soat 24:00 dan keyin cheklov</b>	Belgilangan joyning har 8 m <sup>2</sup> maydoniga 1 kishi <b>22:00 dan keyingi cheklovlar</b>	Belgilangan joyning har 8 m <sup>2</sup> maydoniga 1 kishi <b>22:00 dan keyin cheklov</b>
<b>Yopiq sport inshootlari, Sartaroshxona Go'zallik salonlari, O'yin-kulgi xonalari</b>	Belgilangan joyning har 6 m <sup>2</sup> maydoniga 1 kishi Ish soatlarida cheklovlar yo'q	Belgilangan joyning har 8 m <sup>2</sup> maydoniga 1 kishi Ish soatlarida cheklovlar yo'q	Belgilangan joyning har 8 m <sup>2</sup> maydoniga 1 kishi Ish soatlarida cheklovlar yo'q <b>※ 22:00 dan keyin suzish havzalaridan foydalanish cheklanadi</b>	Belgilangan joyning har 8 m <sup>2</sup> maydoniga 1 kishi <b>22:00 dan keyin cheklov</b>
<b>O'quv markazlari</b>	Bir bo'sh o'rindiq masofani saqlash yoki har 4 m <sup>2</sup> joyda 1 kishini joylashtirish Ish soatlarida cheklovlar yo'q	Bir bo'sh o'rindiq masofani saqlash yoki har 6 m <sup>2</sup> joyda 1 kishini joylashtirish Ish soatlarida cheklovlar yo'q	Bir bo'sh o'rindiq masofani saqlash yoki har 6 m <sup>2</sup> joyda 1 kishini joylashtirish Ish soatlarida cheklovlar yo'q	Bir bo'sh o'rindiq masofani saqlash yoki har 6 m <sup>2</sup> joyda 1 kishini joylashtirish <b>22:00 dan keyin cheklov</b>
<b>Mutolaa xonalari, O'quv kafelari</b>	Bir bo'sh o'rindiqlik masofani saqlash (bo'lurchi to'siqlar mavjud bo'lgan holatlar bundan mustasno) Ish soatlarida cheklovlar yo'q	Bir bo'sh o'rindiqlik masofani saqlash (bo'lurchi to'siqlar mavjud bo'lgan holatlar bundan mustasno) Ish soatlarida cheklovlar yo'q	Bir bo'sh o'rindiqlik masofani saqlash (bo'lurchi to'siqlar mavjud bo'lgan holatlar bundan mustasno) Ish soatlarida cheklovlar yo'q	Bir bo'sh o'rindiqlik masofani saqlash (bo'lurchi to'siqlar mavjud bo'lgan holatlar bundan mustasno) <b>22:00 dan keyin cheklov</b>
<b>Kinoteatrlar, Tomosha teatrlari</b>	Bo'sha o'rindiq qoldirib masofa saqlash yo'q Ish soatlarida cheklovlar yo'q	Bir bo'sh o'rindiqlik masofani saqlash (hamrohlardan tashqari) Ish soatlarida cheklovlar yo'q	Bir bo'sh o'rindiqlik masofani saqlash (hamrohlardan tashqari) Ish soatlarida cheklovlar yo'q	Bir bo'sh o'rindiqlik masofani saqlash (hamrohlardan tashqari) <b>22:00 dan keyin cheklov</b>
<b>Do'konlar, Super</b>	Ta'mini bilish uchun ichib yoki tatib ko'rish, belgilangan dam olish joylaridan foydalanishga ruxsat, mijozlarni ma'lum bir tovarni xarid qilishga chaqiruvchi tadbirga ta'qiq(2~4-daraja)			

<b>Marketlar, Univermaglar</b>	Ish soatlarida cheklovlar yo'q	Ish soatlarida cheklovlar yo'q	Ish soatlarida cheklovlar yo'q	22:00 dan keyin cheklov
<b>To'y zallari, Dafn marosimi uylari</b>	Stollar orasidagi masofa 1 m, o'rindiqlar / stollar orasidagi bitta oraliq bo'shliq qoldirish yoki stollar orasidagi bo'luvchi to'siqlar o'rnatish (+50 m <sup>2</sup> )			
	Har 4 m <sup>2</sup> ga 1 kishi	100 kishidan kam har 4 m <sup>2</sup> ga 1 kishi	50 kishidan kam har 4 m <sup>2</sup> ga 1 kishi	Faqat oila a'zolari + qarindoshlar
<b>Kompyuter xonalari</b>	Bo'sh o'rindiq qoldirib masofa saqlash yo'q Ish soatlarida cheklovlar yo'q	Bir bo'sh o'rindiqlik masofani saqlash (bo'luvchi to'siqlar mavjud bo'lgan holatlar bundan mustasno) Ish soatlarida cheklovlar yo'q	Bir bo'sh o'rindiqlik masofani saqlash (bo'luvchi to'siqlar mavjud bo'lgan holatlar bundan mustasno) Ish soatlarida cheklovlar yo'q	Bir bo'sh o'rindiqlik masofani saqlash (bo'luvchi to'siqlar mavjud bo'lgan holatlar bundan mustasno) 22:00 dan keyin cheklov

#### 4. Har bir daraja bo'yicha boshqa muassasalar uchun Covid-19ga qarshi tartib-qoidalar

	1-daraja	2-daraja	3-daraja	4-daraja
<b>Korxonalar</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Belgilangan ish vaqti, belgilangan tushlik tanaffusi va uydan turib ishlash tavsiya etiladi</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>300 kishidan ko'p xodimga ega bo'lgan ish joylari uchun belgilangan ish vaqti, belgilangan tushlikdagi tanaffus va xodimlarning 10% uchun uydan turib ishlash (ishlab chiqarish sohasidan tashqari) tavsiya etiladi.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>50 kishidan ko'p xodimga ega bo'lgan ish joylari uchun xodimlarning belgilangan ish vaqti, belgilangan tushlikdagi tanaffus va xodimlarning 20% uchun uydan turib ishlash (ishlab chiqarish sohasidan tashqari) tavsiya etiladi</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Belgilangan ish vaqti, belgilangan tushlik tanaffusi va ish joyidagi xodimlarning 30% uchun uydan turib ishlash (ishlab chiqarish sohasidan tashqari) tavsiya etiladi.</li> </ul>
<b>Tunash uchun mo'ljallangan turar joylar</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Turar joy xonasidan foydalanadigan kishilar soniga rioya qilish</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Turar joy xonasidan foydalanadigan kishilar soniga rioya qilish</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Turar joy xonasidan foydalanadigan kishilar soniga rioya qilish (oldingi 3/4 bo'yicha boshqarish)</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Turar joy xonasidan foydalanadigan kishilar soniga rioya qilish (oldingi 2/3 bo'yicha boshqarish)</li> </ul>
<b>Yosh bolalar kafesi, Ko'rgazmalar</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Har 4 m<sup>2</sup> ga 1 kishi</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Har 6 m<sup>2</sup> ga 1 kishi</li> </ul>		
<b>Massajxonalar</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Har 6 m<sup>2</sup> ga 1 kishi</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Har 8 m<sup>2</sup> ga 1 kishi</li> </ul>		
<b>Diniy muassasalar</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Sig'imning 50% qismi (Bo'sh o'rindiq qoldirib masofa saqlash)</li> <li>Yig'ilish, ovqatlanish va tuni bilan qolish tavsiya etilmaydi</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Sig'imning 30% qismi (Bo'sh o'rindiq qoldirib masofa saqlash)</li> <li>Yig'ilish, ovqatlanish va tuni bilan qolish taqiqlanadi</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Sig'imning 20% qismi (Bo'sh o'rindiq qoldirib masofa saqlash)</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Yuzma-yuz ko'rishmasdan ibodatga ruxsat beriladi</li> </ul>
<b>Parvarishlash shifoxonalari, Parvarishlash muassasalari</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Mahalliy hokimliklar tomonidan xodimlarga profilaktik testlarni o'tkazish yoki o'tkazmaslik to'g'risida qaror qabul qilinadi</li> <li>Kontaktsiz tashriflarga ruxsat beriladi va yuzma-yuz ko'rishish emlanganlarga ruxsat beriladi</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Har 2 haftada bir marta xodimlarga profilaktik testlar (emlangan xodimlardan tashqari) o'tkaziladi.</li> </ul>		<ul style="list-style-type: none"> <li>Hech qanday tashriflar mumkin emas</li> </ul>
<b>Maktab</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Covid-19ga qarshi tartib-qoidalariga amal qilgan holatda maktabga qatnash mumkin</li> </ul>		<ul style="list-style-type: none"> <li>O'quvchilar zichligi 1/3 ~ 2/3</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Masofaviy(onlayn)darslar</li> </ul>

## **5. Jismoniy shaxslar va ommaviy foydalanadigan joylarning Covid-19ga qarshi tartib-qoidalar bo'yicha yanada yuqori javobgarligini kuchaytirish**

- Jismoniy shaxslar tomonidan har qanday Covid-19 tartib-qoidasining buzilishi uchun qattiqroq jazo choralari
  - Agar Covid-19 tartib-qoidasini buzgan holatda yuqtirgan va bu tasdiqlangan bo'lsa, moddiy yordamdan chetlashtiriladi.
  - Agar Covid-19 tartib-qoida buzilishi sabab(biron bir shaxs yoki guruh tomonidan) yoppasiga yuqtirish sodir bo'lsa, tovon puli talab qilinadi.
  
- Ommaviy foydalanadigan joylarning nazorati, mas'uliyatini kuchaytirish va qat'iy choralarni qo'llash
  - Covid-19 tartib-qoidasini buzgan har qanday muassasa uchun ikki hafta davomida ish faoliyatining to'xtatilishi to'g'risida buyruq beriladi.
  - Covid-19 tartib-qoidasini buzgan har qanday muassasada yoppasiga yuqish yuzaga kelsa, zararni qoplash yordam puli, Covid-19 uchun ajratilgan moddiy yordam puli kabi har qanday davlat tomonidan beriladigan mablag'(subsidiya)dan chetlashtiriladi.